



# O‘ZBEKISTON OLIV TA‘LIMIDA SIFATNI TA‘MINLASHNI MUSTAHKAMLASH

AMBA & BGA  
TAJRIBALARI

14  
APREL



HILTON  
MEHMONXONASI,  
TOSHKENT SHAHRI



# TADBIR DASTURI

## 09:25 **Ochilish sessiyasi**

- 09:25 | **Buyuk Britaniyaning O'zbekistondagi**  
elchixonasi vakillari
- 09:30 | **Baxtiyor Yuldashev**  
TSTMA direktori
- 09:35 | **Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi**  
Vazir o'rinbosari
- 09:40 | **Andrew Main Wilson**  
AMBA & BGA bosh ijrochi direktori

## 09:45 **Asosiy ma'ruza**

- | **Andrew Main Wilson**  
AMBA & BGA bosh ijrochi direktori

## 10:00 **AMBA & BGA ga a'zo Oliygozlarga Sertifikat topshirish marosimi**

### 10:15 **1-sessiya**

- | **Richard Turner**  
BGA biznesni rivojlantirish bo'limi rahbari AMBA & BGA

### 11:00 **Kofe-breyk**

### 11:15 **2-sessiya**

- | **Debbie Kemp**  
AMBA & BGAning biznes maktablari bilan hamkorlik bo'yicha direktori

### 12:15 **Interaktiv savol-javob va tayyorgarlik bo'yicha so'rov**

- | Moderator + AMBA&BGA  
ekspertlari, OTT vakillari

### 12:45 **Tushlik**

### 14:15 **3-sessiya**

- | **Richard Turner**  
BGA biznesni rivojlantirish bo'limi rahbari AMBA & BGA

### 15:15 **Kofe-breyk**

### 15:30 **Davra suhbatlari**

- | Moderator + AMBA&BGA  
ekspertlari, OTT vakillari

### 16:45 **Muhokama**

### 16:45 **Yakuniy sessiya**

# MA'RUZACHILAR



**Andrew Main Wilson** *Andrew Main Wilson*

AMBA va BGA bosh direktori. AMBA 80 ta mamlakatdagi 300 dan ortiq biznes maktablarini akkreditatsiyadan o'tkazgan hamda 150 ta mamlakat bo'ylab 80 000 dan ziyod MBA talabalari va bitiruvchilarini birlashtiradi. 2019-yilda ishga tushirilgan BGA tashkilotning 50 yildan ortiq tarixidagi eng yirik tashabbus bo'lib, olti yildan sal ko'proq vaqt ichida unga 340 dan ortiq biznes maktabi qo'shilgan. Andrew 2016–2018-yillarda BMTning PRME tashabbusiga raislik qilgan.



**Debbie Kemp** *Debbie Kemp*

AMBA va BGAda Biznes maktablari bilan hamkorlik bo'yicha direktor, jamoaga 2025-yil yanvarda qo'shilgan. U a'zo maktablarga strategik masalalar, dasturlarni rivojlantirish va biznes ta'limini uzluksiz takomillashtirishda ko'maklashadi. Debbie sanoat va akademik sohada 30 yillik rahbarlik tajribasiga ega. Uning tajribasi strategiya, professor-o'qituvchilar mentorligi, talabalarni qabuli, bitiruvchilar bilan aloqalar, bandlik, barqarorlik va sanoat bilan hamkorlikni qamrab oladi.



**Richard Turner** *Richard Turner*

AMBA va BGAda BGA bo'limi rahbari bo'lib, BGA a'zolicini kengaytirish uchun mas'ul. Richard 2023-yilda BGA faoliyatining navbatdagi kengayishi doirasida AMBA va BGAGA qo'shilgan. U AMBA va BGA akkreditatsiyalarini xalqaro miqyosda olib borgan hamda BGA akkreditatsiyasining rivoji va amalga oshirilishi, shuningdek, maktablar bilan akkreditatsiyaning tayyorgarlik bosqichidagi hamkorlik uchun javobgar bo'lgan. U Manchester universitetida huquq bo'yicha LLB darajasini olgan.



**Shareen Pennington** *Shareen Pennington*

Raqamli yo'nalish bo'yicha yetakchi – katta marketing mutaxassisi, BGA brendining global o'sishini ta'minlash uchun mas'ul. Shareen marketing ma'lumotlari va tahlillarini boshqarib, rahbariyatga strategik xulosalar taqdim etadi va BGA xizmatlari uchun mijozlar oqimini oshirishga e'tibor qaratadi. Shuningdek, u AMBA va BGA uchun raqamli marketing strategiyalarini nazorat qiladi. B2B va B2C sohalarida sakkiz yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan Shareen ta'lim industriyasida kuchli tajribaga ega.



**Anna Hopley** *Anna Hopley*

AMBA & BGA'dagi Delegatlar bilan aloqalar bo'yicha menejer, tadbirlarni rejalashtirish, logistika va sotuv sohalarini mutaxassisi. U global tadbirlarda delegatlar qamrovini kengaytirish va hamkorlikni kuchaytirish uchun mas'ul bo'lib, tendensiyalar va muammolarni tushunish maqsadida biznes maktablari bilan ishlaydi. Ish boshlaganidan buyon u delegatlar ishtirokini boshqarishni mamnuniyat bilan bajarib kelmoqda va ushbu dinamik tarmoqni qo'llab-quvvatlash hamda u bilan hamkorlik qilishga tayyor.



## AMBA & BGA HAQIDA

Butun dunyo bo'ylab biznes maktablari uchun akkreditatsiya va a'zolik tarmog'i bo'lib, biznes ta'limi standartlarini yuksaltirish hamda hamjamiyat va jamiyat farovonligi yo'lida aloqalarni mustahkamlash bo'yicha 50 yildan ortiq tajribaga ega.

## BIZ KIMMIZ

Biz 1967-yilda tashkil etilganidan buyon 50 yildan ortiq tajriba to'plagan, dunyoning yetakchi va yuksak salohiyatli biznes maktablari uchun xalqaro a'zolik hamda sifatni ta'minlash tashkilotimiz. Association of MBAs (AMBA) MBA ta'limi bo'yicha yetakchi xolis tashkilot bo'lib, asosan ilg'or biznes maktablarining MBA portfeli akkreditatsiyasini amalga oshiradi. Business Graduates Association (BGA) esa butun ta'lim muassasasi miqyosida a'zolik va akkreditatsiyani taqdim etuvchi tashkilot bo'lib, innovatsiya va o'ziga xoslikni qo'llab-quvvatlagan holda ijobiy ta'sir va mas'uliyatli boshqaruv amaliyotlariga alohida urg'u beradi. Birgalikda biz — AMBA va BGA.

## AMBA VA BGA'NING O'ZBEKISTON MILLIY SIFATNI TA'MINLASH AGENTLIGI BILAN HAMKORLIGI

AMBA va BGA yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim Sifatini Ta'minlash Milliy Agentligi (TSTMA) bilan o'ziga xos hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Mazkur hamkorlik ikki nufuzli institut o'rtasida ta'lim sohasida kuchli ittifoqni shakllantiradi.

Tomonlar anglashuv memorandumini imzolashini orqali O'zbekistonda oliy ta'lim sifatini ta'minlash va oshirishga sodiqligini tasdiqladi hamda ushbu hamkorlik doirasida teng sheriklar sifatida yanada yaqin professional aloqalarni yo'lga qo'yishni maqsad qildi.

Ushbu kelishuvga muvofiq, TSTMA AMBA & BGA'ni O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritish vakolatiga ega xorijiy sifatni ta'minlash agentliklarining milliy reyestriga kiritadi. Bu esa AMBA va BGA'ga O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari hamda ularning biznes ta'limi dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish imkonini beradi.

Mazkur hamkorlik haqida AMBA va BGA bosh ijrochi direktori Andrew Main Wilson shunday dedi: "Biz O'zbekistonning Ta'lim Sifatini Ta'minlash Milliy Agentligi bilan hamkorlikdan mamnunmiz. Ushbu anglashuv memorandumini menejment ta'limi sohasida sifat va innovatsiyani mustahkamlash uchun muhim imkoniyat yaratadi. Yaqin hamkorlik orqali biz yuqori standartlarni ilgari surish, mintaqada jahon darajasidagi biznes ta'limini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim muassasalari, tinglovchilar va keng jamoatchilik uchun uzoq muddatli ijobiy ta'sir yaratishni maqsad qilganmiz."

## KEY FACTS



Business Graduates Association AMBA  
va BGA'ning asl nomi bo'lib, u Buyuk Britaniyaning  
London shahrida tashkil etilgan.

# 1967



Keyinchalik AMBA (Association of MBAs)  
nomi bilan qayta brending qilingan.

# 1987



BGA qayta

# 2019

yilda biznes maktablarining o'ziga xosligi va ta'sirini ilgari  
surish maqsadida ishga tushirildi



AMBA & BGA  
tarmog'ida

# 500

biznes  
maktablar

# 80

davlatda



AMBA asosan MBA dasturi darajasiga qaratilgan, BGA esa butun ta'lim muassasasi va uning barcha dasturlarini qamrab oladi



BGA butun ta'lim muassasasini qamrab oladi va qat'iy andozalarga tayanmaydi, manfaatdor tomonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish maqsadida innovatsiya va asosli tavakkalchilikni rag'batlantiradi.



BGA mas'uliyatli boshqaruv tamoyillariga yo'naltirilgan bo'lib, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'unlikni targ'ib qiladi.



Batafsil ma'lumot uchun rasmiy sayt

[www.amba-bga.com](http://www.amba-bga.com)



AMBA accreditation denotes the highest standard of achievement in postgraduate business education.

ASSOCIATION OF MBAS



An international membership and quality assurance body of world-leading and high-potential Business Schools.

BUSINESS GRADUATES ASSOCIATION

HOME EVENTS INSIGHTS NETWORK COMMERCIAL WHO WE ARE MORE

Who We Are



## A global accreditation & membership network for business schools

Over 50 years of experience in raising standards of business education globally and fostering connections for the benefit of our community and society as a whole.

AMBA & BGA ACCREDITATION

## ALOQA UCHUN ASOSIY SHAXS:



### RICHARD TURNER

Biznesni Rivojlantirish bo'limi Rahbari



ASSOCIATION OF MBAS AND  
BUSINESS GRADUATES ASSOCIATION



+44 (0)20 7246 2694 | Asosiy: +44 (0)20 7246 2686 | Mob: +44 (0)7745 122 773



[R.Turner@amba-bga.com](mailto:R.Turner@amba-bga.com)



[www.amba-bga.com](http://www.amba-bga.com)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH  
MILLIY AGENTLIGI

O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan akkreditatsiya  
tashkilotlari reyestriga kiritilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Tasdiqlangan sana  
**27- yanvar, 2026-yil**

Buyruq raqami  
**9-son**

Ushbu guvohnoma quyidagi tashkilotga

## **AMBA&BGA - Association of MBAs and Business Graduates Association**

O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat  
akkreditatsiya tashkilotlari reyestriga kiritilganligini hamda respublikada faoliyat  
yuritayotgan ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini akkreditatsiyadan  
o'tkazishga ruxsat berilganligini tasdiqlaydi.


Amal qilish muddati  
**27-yanvar 2031-yil**



Director  
**Bakhtiyor Yuldashev**





 +998 55 505 30 30

 [info@nqaae.uz](mailto:info@nqaae.uz)  
[www.nqaae.uz](http://www.nqaae.uz)

   @nqaaeuz

 @nqaaeuzbot